

“XABAR” INFORMATSION DASTURLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI: QORAQALPOG‘ISTON TELEVIDENIYESI MISOLIDA

Kamalova Aysuliw

O‘zJOKU magistranti,

aysuliw.12@gmail.com

ORCID: 0009-0001-5496-5807

Annotatsiya. *Mazkur maqola Qoraqalpog‘iston televideniyesining “Xabar” informatsion dasturi misolida telejurnalistikaning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqot davomida xabar matnlarining tuzilishi, leksik va stilistik qatlam, orfoepik va orfografik me‘yorlarning qo‘llanishi lingvistik jihatdan ko‘rib chiqildi. Shuningdek, telejurnalist nutqining aniqlik, ixchamlik, xolislik kabi kommunikativ omillarga qanday ta‘sir ko‘rsatishi tahlil qilindi. Maqola “Xabar” dasturlaridan olingan real misollar asosida tahlil qilingan bo‘lib, amaliy kuzatuvlar dastur tilida uchraydigan muammolar va yutuqlarni ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari telejurnalistlar nutq madaniyatini oshirish va media tili me‘yorlarini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *informatsion dastur, media tili, orfoepiya, orfografiya, Qoraqalpog‘iston televideniyesi, stilistika, xabar janri.*

Kirish. Bugungi kunda televideniye O‘zbekiston aholisini yangiliklar va

badiiy tahliliy ma‘lumotlar bilan ta‘minlaydigan asosiy axborot vositasi ekanligi ma‘lum bo‘ladi. V. Sappak takidlaganidek: “Televideniye garchi u, hatto sof reportajdan iborat ko‘rsatuv bo‘lsa ham, faqat axborot yetkazish funksiyasini bajarish bilangina cheklanmaydi”. Demak, hozirgi bosqichda mahalliy va xalqaro yangiliklarni xalqqa yetkazishda televideniye muhim ahamiyatga ega. Tabiiyki, respublika televideniyesining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatida axborot janrlari yetakchi o‘rin egallaydi. (Allamberganova, 2022) Telejurnalistika zamonaviy axborot makonining eng faol segmentlaridan biri bo‘lib, “Xabar” janri tinglovchi va tomoshabinlarga tezkor, aniq va ishonchli ma‘lumot yetkazish jarayonida alohida o‘rin tutadi. Oxirgi yillarda media tili masalalari, xususan, efirdagi til me‘yorlari, jurnalist nutqi madaniyati va lingvistik xususiyatlar ilmiy nuqtayi nazardan chuqur tadqiq etilmoqda.

Mavzu dolzarbligining yana bir omili — bugungi media makonida informatsion dasturlarning tinglovchiga ta‘sirchanligi katta ahamiyat kasb etishi, bunda jurnalistning tili, ohangi, ifoda uslubi hal qiluvchi rol o‘ynashidir. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston televideniyesi — mintaqaviy media tizimi sifatida o‘ziga xos tilda axborot berish tamoyillari bilan ajralib turadi.

Mazkur maqolada “Xabar” informatsion dasturining tili lingvistik mezonlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi — telejurnalistlar tomonidan efirda qo‘llanilayotgan til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, me‘yoriy va nomuvofiq holatlarni ko‘rsatish, dastur nutqidagi stilistik vositalarni tahlil qilishdir.

Asosiy qism

1. “Xabar” informatsion dasturining til tizimi va umumiy lingvistik xususiyatlari

“Xabar” janri televideniyaedagi eng ixcham va faktlarga asoslangan axborot turidir. Shu sababli uning tilida aniqlik, qisqalik, xolislik va mantiqiy izchillik alohida o‘rin tutadi.

Telexabar — voqeani qisqa, lo‘nda va holis tarzda tomoshabinga yetkazish janridir. Informatsion dasturlar nafaqat xabar manbai, balki jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi, tahliliy-axborot maydoni sifatida ham xizmat qiladi.

Har bir informatsion dastur mamlakatimizda yuz berayotgan voqea hodisalarni tezkorlik bilan yetkazib beruvchi hamda aholini o‘zi uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlardan xabardor etuvchi ko‘rsatuvdir. (Hatamov, 2025).

Qoraqalpog‘iston televideniyesida axborot janrlari keng tarqalgan va ular bugungi kunda dunyo jurnalistikasi prinsiplariga mos bo‘lib, bu axborot vositasi faoliyatida etakchi o‘rin egallayotganligini qayd etish mumkin. Ko‘pgina mamlakatlarda jurnalistika targ‘ibot usullaridan voz kechib, auditoriyaga faqat ma’lumot etkazish yo‘liga o‘tmoqda. Aksariyat televideniylarida axborot usulida uzatilayotgan ma’lumotlar tahliliy va badiiy-publitsistik janrlarga mos keladi, rivojlangan mamlakatlarda esa ular tobora ustuvor bo‘lib bormoqda. Qoraqalpog‘iston televideniyesi amaliyotida ham axborot janrlarining nisbatan ustuvorligi ko‘zga tashlanmoqda. (Allamberganova, 2014)

Qoraqalpog‘iston televideniyaedagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma’rifiy ko‘rsatuvlari bilan birgalikda informatsion dasturlari e‘fira uzatiladi. Informatsion dasturlari uch tilda qoraqalpoq, o‘zbek va rus tillarida olib boriladi. “Xabar” dasturida faktlarning ketma-ket taqdim etilishi, voqealarning aniq sanalar, ismlar, joy nomlari bilan berilishi lingvistik strukturaning asosiy negizini tashkil etadi. Kuzatuvlarda quyidagi xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin:

- Aniq va sodda sintaksis: murakkab gaplar kam ishlatiladi;
- Qisqa semantik bo‘laklar: har bir xabar 1–3 gaplik qisqa bloklarda beriladi;
- Bahosiz nutq: faktlar ko‘proq neytral uslubda taqdim etiladi;
- Axborot yuklamasi yuqori leksika: “taqdim etildi”, “o‘tkazildi”, “ishtirok etdi”, “jarayon boshlandi” kabi rasmiy so‘zlar ustun.

2. Orfografiya va orfoepiya me‘yorlari bo‘yicha tahlil

Telejurnalistika uchun to‘g‘ri talaffuz — auditoriya ishonchini mustahkamlaydigan muhim omillardan biri. Orfoepiya- to‘g‘ri so‘zlam oq ma’nosini bildirib, umumxalq uchun qabul qilingan so‘zlashuv qoidalari yig‘indisidir (Otamirzaeyeva, 2004).

Ma’lumki, televizion kanallar orqali faqat ovoqli yoki shovqinli tasvirlar, musiqa emas, balki insonning jonli ovozi- nutqi ham uzatiladi. Televideniyaening boshqa OAVdan afzalligi ham shundaki, u yaratayotgan nutq va u orqali nomayon bo‘layotgan notiq obrazini birlashtirdi (Bakieva va b. 2019). Yani, e‘fira chiqayotgan harbir jurnalist o‘z nutqi va talaffuziga e’tibor qaratishi, xabarni auditoriyaga aniq, tiniq, xatolarsiz, adabiy til me‘yorlariga tayanib yetkazishi lozim. Shu nuqtai nazardan Qoraqalpog‘iston televideniyaedagi “Xabar” informatsion dasturlarida ham o‘tkazilgan kuzatuvlar davomida ba’zi orfoepik nomuvofiqliklar uchraydi.

“Xabar” informatsion dasturining qoraqalpoq tilidagi (04.12.2024) sonida “Standartlar” soʻzi “standrat” deya, “Janʼaliqlar” (“Yangiliklar”) koʻrsatuvida (15.01.2025) “bank” soʻzi - “banh” deb notoʻgʻri talaffuz qilingan.

“Shu sababli ham barcha islohatlar, yangilanishlar mahallada oddiy insonlar hayotida oʻzgarishlar kiritishga yoʻnaltirilmoqta. Bugun bu masʼullarning olga masala sanaladi”. “Yashnobod” MFY hududda 697ta xonadon tinch, ahil istiqomat qilib kelishmoqta. (“Xabar” oʻzbek tilidagi soni 19.01.2025). Ushbu birgina koʻrsatuv davomida efirga uzatilgan lavhalarda birnecha bor xatolarga yoʻl qoʻyilgan. Bunda “hayotida” – soʻzida –da emas, “hayotiga” deb –ga qoʻshimchasi qoʻshilishi kerak, “olga” emas balki, “oldiga qoʻygan asosiy masala” desa maqsadga muvofiq boʻladi. Keyingi jumlada esa “hududda” soʻzida “hududida” demay –i qoʻshimchasini tushirib aytgan.

Oʻzbek va qoraqalpoq til elementlarining aralashib ketishi (baʼzi mualliflar talaffuzida seziladi), rasmiy terminlarning notoʻgʻri oʻqilishi (masalan, statistik atamalar) kabi ayrim holatlar ham uchraydi.

Orfografik jihatdan esa ayrim subtitrlar va ekran yozuvlarida kichik xatolar uchraydi:

Masalan; “Janʼaliqlar” (“Yangiliklar” 27-10-2024) informatsion dasturida efirga uzatilgan subtitrlar yozuvida Bemor: Perneguʻl Ismaylova deyilgan, bunda ism xato yozilgan, Perdeguʻl deb yozilsa toʻgʻriroq boʻladi. “Xabar” ning qoraqalpoq tilidagi sonida (26.10.2024) ekranda “Yoʻl transport hodisasi yuz berishining obektiv sabablari” degan jumlada “obektiv” emas- “obyektiv” boʻlishi kerak edi. (Qaraqalpaq tilini orfografiyalik soʻzligi 2020-y 328-b.)

Bu holatlar televideniya dasturining tahrir jarayonida nazoratni kuchaytirish zarurligini koʻrsatadi.

3. Leksik va stilistik xususiyatlar

Media tilida sinonimlar, neytral leksika va faktlarga boy iboralar koʻp ishlatiladi. Xabarlar tili rasmiy, loʻnda va keraksiz badiiylikdan holi boʻlishi shart.

Tahlil davomida “Xabar” dasturining tilida quyidagi holatlar aniqlandi:

Ijobiy jihatlar:

Leksik boylik: davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ijtimoiy sohalarga oid atamalar toʻgʻri qoʻllanadi;

Stilistik aniqlik: xabar matni auditoriya uchun tushunarli;

Rasmiy uslubning ustunligi: axborotning jiddiyligi saqlanadi.

Muammoli jihatlar:

Tavtologiyalar: Tavtologiya(yun. tautologia) —bir fikrni, mazmunni boshqa soʻz yoki soʻzlar (soʻz birikmasi) bilan takroran ortiqcha ishlatish, soʻzni ortiqcha takrorlash. (Ataboyeva.)

Masalan, “Nukus shahri zamonaviy tipda qad rostlagan zamonaviy binolar, yuqori kayfiyatda boshlangan tantanali tadbir...” (“Xabar” oʻzbek tilidagi soni 14.01.2025). Ushbu keltirilgan xabar tekstida “zamonaviy” soʻzi ikki marta qayta takrorlangan. Bu esa matnning stillik tarafdin notoʻgʻri tuzilganligining belgisi boʻlib, tavtalogiyaga yaqqol misol boʻladi.

Keraksiz takrorlar: bir xabarda “oʻtkazildi”, “tashkil etildi” kabi bir xil feʼllarning ketma-ket keltirilishi;

Emotsional va badiiy ifodalar: ba'zan axborotning xolisligini kamaytiradi, bu kam kirish qismlarning uzoq badiiy jumladan iboratligi qolibga aylanib qolgan, uzoq, ketma-ket gaplar davomiyligi tomoshabinlarni zeriktiruvchi xususiyatga ega.

Murakkab va rasmiylashtirilgan sintaksis: ba'zi xabarlarida ortiqcha rasmiy konstruksiyalar. Bu tahlillar xabar matni uchun lo'nda, sodda, tushunarli tilning afzal ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston televideniyesining "Xabar" informatsion dasturi umumiy lingvistik me'yorlarga asosan mos keladi. Uning tilida aniqlik, ixchamlik, xolislik kabi mezonlar yetarli darajada aks etadi. Shu bilan birga, orfoepik va stilistik jihatdan ayrim kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ular asosan talaffuzdagi noaniqliklar, sintaktik takrorlar, subtitrlardagi orfografik xatolar va tavnologiyalar bilan bog'liq.

Maqolada keltirilgan tahlil telejurnalistlar uchun nutq madaniyatini yanada oshirish, efir matnlarini tahrir qilishda lingvistik nazoratni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Media tili me'yorlariga rioya etish xabar dasturlarining kommunikativ samaradorligini oshiradi va auditoriya ishonchining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hatamov, M. (2025). Telekanallar dasturlarida informatsion ko'rsatuvlarning tutgan o'rni va ahamiyati. Академические исследования в современной науке, 4(29), 91–95.
2. Allamberganova, P. (2022). Audiovizual jurnalistika: telejurnalistika janrlari [O'quv qo'llanma]. Toshkent: Universitet.
3. Allamberganova, P. (2014). Telejurnalistika janrlari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
4. Otamirzaeva, S., & Yusupova, M. (2004). O'zbek tili. Toshkent.
5. Bakieva, G. X., & Teshebaeva, D. M. (2019). Ommaviy axborot vositalari tili. Toshkent.
6. Qaraqalpaq tiliniñ orfografiyalıq sózligi. (2020). Nókis: Bilim.
7. Ataboyeva, H. (n.d.). OAV tilining lisoniy muammolari: abstraksionizm, pleonazm, tavnologiya. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/3988/40>
8. Qaraqalpaqstan MTRK. (n.d.). YouTube channel. Retrieved from https://youtube.com/@qaraqalpaqstan_mtrk